

## KICHIK BIZNES RIVOJLANISHINING HUDUDIY DINAMIKASI TAHLILI

**Ergasheva Fotima Ibragimovna**

*Namangan muhandislik-texnologiya instituti "Iqtisodiyot" kafedrası katta o'qituvchisi, PhD*

**Raximova Gulnoza Ravshanjonovna**

*Namangan muhandislik-texnologiya instituti "Iqtisodiyot" yo'nalishi magistri*

**Annotatsiya:** *Maqolada bugungi kunda kichik biznesning ahamiyati va uning rivojlantirishni dolzarbligi yoritib o'tilgan. Shuningdek, Namangan viloyati hududlarida kichik biznes sub'yektlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari va uning dinamikasi tahlil etilgan. Sohani rivojlanishidagi mavjud muammolar aks ettirilib, muammolar yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *kichik biznes, YaHM hajmi, tadbirkorlik sub'yektlarining eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, kichik biznes sub'yektlari, tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulush.*

### **Kirish**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jahon iqtisodiyotidagi ahamiyati tobora oshib bormoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida biznesning ustuvorliklari tan olingan. Shu bois ularni rivojlantirish uchun chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish ancha ilgari boshlangan. Ya'ni, kichik biznes jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida nihoyatda muhim o'rin tutadi.

Globalashuv sharoitida raqobat keskinlashadi. Bunday sharoitda aynan kichik biznes va tadbirkorlik o'zining harakatchanligi, kam kapital mablag'larini jalb qilgan holda ishlab chiqarishni yengilroq va tez modernizatsiya qilish orqali ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini qisqa davr ichida yangilab raqobatbardosh mahsulotlarni iste'molchilarga taqdim etadi. Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash davlatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bozor islohotlari barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash orqali aholining turmush farovonligini oshirishga qaratilgan.

### **Asosiy qism**

Keyingi yillarda respublikada tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va biznesni yuritish uchun qulay muhit yaratish, tadbirkorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, soliq tizimi tubdan isloh qilindi, ruxsat beruvchi hujjatlarni olish tartibi sezilarli darajada soddalashtirildi, tadbirkorlik sub'yektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq chora-tadbirlarni yanada takomillashtirish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda, qolaversa Namangan viloyatida amalga oshirilayotgan

islohotlardan ma'lumki bugungi kunda halol tadbirkorlik sub'yektlari uchun dunyo bozorlari eshiklar keng ochilgan. Berilgan qator imkoniyat va imtiyozlardan oqilona foydalanib, o'z faoliyatini qonuniy amalga oshirayotgan har qanday tadbirkorlik sub'yekti qonun himoyasidadir.

Namangan viloyatida soha doirasida ko'plab ishlar amalga oshirilib kelinmoqda va ular o'zining iqtisodiy natijalarini bermoqda. 2017-2022 yillar davomida yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) 15,3 trln so'mdan 41,1 trln so'mga yetdi va uning real hajmi 42 foizga oshdi. Bu o'z navbatida, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaHM hajmini 5,7 mln so'mdan 13,9 mln so'mga ko'payishini ta'minladi. Ushbu davr mobaynida viloyat aholisi soni 11 foizga ko'payib, 3,0 mln nafarga yetdi.

Viloyatning sanoat salohiyatidan samarali foydalanish natijasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4,6 trln so'mdan 18,2 trln so'mga yoki 80 foizga oshdi. Bu, o'z navbatida, viloyat iktisodiyotini barqaror rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. Natijada viloyat YaHMning tarkibida sanoat va qurilish tarmog'ining ulishi 15,7 foizdan 22,3 foizga o'sdi.

Shuningdek, zamonaviy va maishiy xizmatlarga bo'lgan talabni to'liq qondirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida bozor xizmatlari hajmi sezilarli darajada ortib, 5 trln so'mdan 14,7 trln so'mga yetdi yoki 83 foizga ko'paydi. Viloyatda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 25 foizga o'sgan holda, 27,7 trln so'mga yetdi.

Tashqi savdoni erkinlashtirish, tadbirkorlik sub'yektlarining eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga qaratilgan choralar natijasida so'ngi 6 yil davomida viloyatning eksporti hajmi 581,2 mln AQSH dollariga yetdi va 3 baravarga ko'paydi.

Ushbu davr mobaynida viloyatda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar 6,8 mlrd dollar investitsiyalar o'zlashtirish imkonini berdi. Natijada, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2 baravarga ko'payib, 39,8 mingga yetdi va 234 mingga yaqin yangi ish o'rinlari yaratildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularni erkin faoliyat yuritishi uchun qulay sharoit va muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar davomida 2023- yil 1-yanvar holatiga ro'yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) sub'yektlarining soni 33 598 tani tashkil qildi. Bu 2022- yil 1-yanvarga nisbatan 112,1 % ga ko'pdir.

Eng ko'p kichik biznes sub'yektlari savdo tarmog'ida (jami tashkil etilgan sub'yektlarning 36,2 %), sanoat sohasida (24,4 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (9,6 %) va qurilishda (7,5 %) tashkil etilgan.

### 1-jadval

#### Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar (birlilik)

Hududlar	2021- yil	2022- yil
----------	-----------	-----------

	yanvar-dekabr	yanvar-dekabr
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>6 469</b>	<b>5 542</b>
Namangan shahar	1 749	1 689
Mingbuloq	378	236
Kosonsoy	385	267
Namangan	444	344
Norin	389	335
Pop	405	324
To'raqo'rg'on	481	358
Uychi	455	353
Uchqo'rg'on	449	479
Chortoq	430	397
Chust	536	446
Yangiqo'rg'on	368	314

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Namangan shahrida – 1689 ta, Uchqo'rg'on tumanida – 479 ta, Chust tumani – 446 ta, Chortoq tumanida – 397 ta, To'raqo'rg'on tumanida – 358 ta, Uychi tumani – 353 ta, Namangan tumani – 344 ta, Kosonsoy, Norin, va Pop tumanlarida bu ko'rsatkich o'rtacha darajani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich Mingbuloq tumanida 236 tani tashkil etdi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulushi Namangan shahrida – 30,5 %, Uchqo'rg'on tumanida – 8,6 %, Chust tumanida – 8,0 %, Chortoq tumanida – 7,2 %, To'raqo'rg'on tumanida – 6,5 % va Uychi tumanida – 6,4 % tashkil etdi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning 72,8 % (2021- yil yanvar-dekabr oylarida 73,8 %) kichik biznes sub'yektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

Kichik biznes sub'yektlari tomonidan 262,6 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 45,2 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, 501,5 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 72,2 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

## 2-jadval

### Kichik tadbirkorlik sub'yektlari (ish, xizmat) hajmi (2022- yil yanvar-dekabr)

Iqtisodiy faoliyat turlari	Kichik tadbirkorlik sub'yektlari (ish, xizmat) hajmi, mlrd. so'm	Jami hajmga nisbatan ulushi, % da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	26 208,5	94,6
Sanoat	8 331,8	45,7
Qurilish	6 027,3	89,1
Chakana savdo	18174,7	92,3
Yuk tashish, mln. tonna	28,5	91,6
Yo'lovchi tashish, mln. kishi	438,1	97,4

Hududlar bo'yicha **sanoat** sohasining yuqori ulushini Chortoq, va Yangiqo'rg'on tumanlari (100,0 %) hamda Uychi (74,5 %) tumanlari tashkil etdi.

Qurilishda –Norin, Yangiqo'rg'on, 100,0 %, To'raqo'rg'on, 99,3 % Chust, tumanida 99,1 % tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida – Yangiqo'rg'on (84,5 %), Uychi (83,7 %), Kosonsoy (83,7 %), Norin (82,8 %) tumanlari tashkil etdi.

Investitsiyada – Yangiqo'rg'on (95,0 %), Norin (84,3 %), Pop (83,8 %), Uychi (83,2 %) tumanlarida yuqori ulushlarni tashkil etdi.

### 3-jadval

**2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**  
(%da)

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiyalar
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>45,7</b>	<b>89,1</b>	<b>66,0</b>	<b>65,7</b>
Namangan shahar	52,5	82,9	45,0	58,8
Mingbuloq	49,2	96,0	81,5	49,9
Kosonsoy	38,1	98,8	83,7	75,2
Namangan tuman	68,6	98,9	82,4	70,4
Norin	50,2	100,0	82,8	84,3
Pop	61,8	52,1	74,3	83,8
To'raqo'rg'on	10,8	99,3	74,4	60,6
Uychi	74,5	93,5	83,7	83,2
Uchqo'rg'on	23,3	93,1	78,7	68,4
Chortoq	100,0	96,9	79,5	70,8
Chust	40,6	99,1	75,3	51,3
Yangiqo'rg'on	100,0	100,0	84,5	95,0



2023- yil 1- yanvar holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni 32 305 tadan ortiqni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2022- yil mos davriga nisbatan 11,6 % ga oshgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining asosiy qismi, ya'ni 10 657 tasi (jami sub'yektlarning 33,0 %) Namangan shahriga, 2 667 tasi (8,3 %) Chust, 2 128 tasi (6,6 %) Namangan, 2 112 tasi Uychi, 2 101 tasi (6,5 % dan) Uchqo'rg'on tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam faoliyat ko'rsatayotganlar esa 1 404 tasi (4,3 %) Mingbuloq, 1 617 tasi (5,0 %) Norin, 1 646 tasi (5,1 %) Yangiqo'rg'on, 1 958 tasi (6,1 %) Chortoq tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan jami 32 305 ta kichik tadbirkorlik sub'yektlarining 11 686 tasi (36,2 %) - savdoda, 7 838 tasi (24,3 %) - sanoatda, 3 098 tasi (9,6 %) - qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 2 441 tasi (7,6 %) - qurilishda, 1 681 tasi (5,2 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1 211 tasi (3,7 %) - tashish va saqlashda, 657 tasi (2,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 499 tasi (1,5 %) - axborot va aloqa sohasida shuningdek, 3 194 tasi (9,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi. 2022- yil yanvar-dekabr oylarida jami 5 542 ta kichik tadbirkorlik sub'yektlari yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,3 foizga kam tashkil etilgan.

Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahri (1 689 ta), Uchqo'rg'on (479 ta), Chust (446 ta), Chortoq (397 ta), To'raqo'rg'on (358 ta), Uychi (353 ta), Namangan (344 ta), Norin (335 ta), Pop (324 ta) tumanlariga, eng kam tashkil etilganlari esa, Mingbuloq (236 ta), Kosonsoy (267 ta) va Yangiqo'rg'on (314 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko'p tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda (2 109 ta), sanoatda (1 492 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (679 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (244 ta) hamda qurilishda (214 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (85 ta), axborot va aloqada (104 ta) tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab-quvvatlash asosida ularning ishlab chiqarish faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha ishlar yetarli darajada tashkil etilmaganligi sababli, faoliyat ko'rsatmayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining jami ro'yxatga olinganlarning umumiy soniga nisbatan ulushi yuqori bo'lmoqda. Jumladan, 2023- yilning 1- yanvar holatiga Namangan viloyatida jami ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining umumiy sonida faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 4,3 % ni (1 407 ta) tashkil qilgan, ularning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 437 taga ko'paygan. Hisobot davrida 1 921 ta kichik

tadbirkorlik sub'yektlari faoliyati tugatilgan bo'lib, ulardan 1379 tasi (jami faoliyati tugatilganlarning 71,8 %) ixtiyoriy tugatilgan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, viloyat iqtisodiyotida kichik biznes sub'yektlarini rivojlanishi ko'rsatkichlarida ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda ayrim muammolar mavjud bo'lib, bu sohani samarali rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jumladan mazkur muammolarga quyidagilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

- tartibga solish nuqtai nazaridan, soliq tizimini tartibga solish va bank tizimini tartibga solish masalalarini yanada kengroq tahlil etish zaruriyatini borligi;
- xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning asosiy to'siqlari - kadrlar masalasi, investorlar uchun to'liq ma'lumotlarni yo'qligi;
- *tadbirkorlik faoliyatidagi xorijiy investitsiyalardan foydalanishdagi muammolar:*
  - malakali xodimlarning yetishmovchiligi;
  - investorlar uchun axborotlarni yo'qligi;
  - mahalliy hokimiyatning investitsiyalarni jalb qilishda past darajali qizishi;
  - operatsiyalarni amalga oshirishning yuqori qiymati va murakkabligi;
  - xom ashyoning cheklanganligi;
  - haddan tashqari ierarxiya;
  - mavjud iqtisodiy hududlarining zaif rivojlanishi va boshqa shu kabilar.

Tadqiqotlarimiz natijasida yuqorida sanab o'tilgan muammo, kamchilik va to'siqlar tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishiga, uning samaradorligini pasayib borishiga sabab bo'ladi. Bu muammo va kamchiliklarni yechimini topish uchun tadbirkorlik faoliyatida eng maqbul va optimal chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz.

### **Xulosa va tavsiyalar**

Barcha mamlakatlarning iqtisodiyotini rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi alohida ahamiyat kasb etishi hech kimga sir emas. Sohaning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotini yuksalishida va xalq farovonligini oshirishda asosiy rol o'ynaydi. SHuning uchun tadbirkorlik faoliyatini ravnaq topishida ahamiyatli bo'lgan boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish va qo'llash, uning ijobiy natijalariga ega bo'lish asosiy vazifalar qatoridan o'rin olgan.

Kichik biznes rivojlanishining hududiy dinamikasini o'rganish bo'yicha olib borgan tadqiqotlarimizdan kelib chiqqan holda quyidagi xulosani berishimiz mumkin:

- viloyatda tadbirkorlik sohasi samaradorligi tadbirkorlik strategiyalaridan samarali foydalanish va shakllantirish darajasiga bog'liq;
- viloyat hududlaridagi tadbirkorlik dinamikasiga hududlardagi iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, tabiiy va boshqa bir qator omillar ta'sir etadi;
- hududlar xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirish dasturlarini ishlab chiqish va unda ko'zlangan natijaga erishish past darajada.

Kichik biznes rivojlanishining hududiy dinamikasini o'rganish bo'yicha quyidagilarni *tavsiya* etamiz: xalqaro amaliyotga muvofiq tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, kredit berishni bo'yicha chora-tadbirlarni joriy qilish; soliq tizimini soddalashtirish; ma'muriyatchilik xarajatlarini kamaytirish, nazorat qilish tizimini tartibga solish; ma'muriy xarajatlarni qisqartirish uchun davlat va kichik biznes sub'yektlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni raqamlashtirish; yoshlar va ayollar tadbirkorligini, ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish, o'z biznesni boshlamoqchi bo'lganlarga tadbirkorlik asoslarni bo'yicha bilimlar berish; tadbirkorlik faoliyatini imtiyozli shartlar bilan g'oyalarni sinab ko'rish uchun - biznes-inkubatorlar, kar'era markazlari, kovorking, texnopark platformalar tizimini yaratish.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Эргашева, Ф. И. (2023). ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА АХБОРОТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. SPAIN" PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH", 14(1).

2. БН Дедажанов, ФИ Эргашева ПРОБЛЕМЫ ПОДДЕРЖКИ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ-ЭКСПОРТЕРОВ И ПУТИ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ ВЕСТНИК РОССИЙСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА имени ГВ ПЛЕХАНОВА. ВСТУПЛЕНИЕ. ПУТЬ В НАУКУ № 3 (27) 2019. [https://www.rea.ru/ru/org/managements/izdcentr/Documents/%E2%84%96%203%20\(27\)%202019.pdf#page=24](https://www.rea.ru/ru/org/managements/izdcentr/Documents/%E2%84%96%203%20(27)%202019.pdf#page=24)

3. Nabijanovich, D. B. (2023, May). TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA BOSHQARUV STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI. In " USA" INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE TOPICAL ISSUES OF SCIENCE (Vol. 8, No. 1).

4. <https://review.uz/oz/post/infografika-2017-2022-yillarda-namangan-viloyatining-ijtimoiy-iqtisodiy-rivojlanishi>

5. NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI. NAMANGAN VILOYATINING STATISTIK AXBOROTNOMASI 2022- yil YANVAR-DEKABR.